

**MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MAHALLIY BUDJET  
MABLAG'LARINING NAZORATINI SAMARALI BOSHQARISH ASOSLARI**

**Kobilov Botirbek**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori*

---

**ARTICLE INFO**

**ABSTRACT:**

---

**ARTICLE HISTORY:**

*Received: 21.04.2025*

*Revised: 22.04.2025*

*Accepted: 24.04.2025*

*Ushbu maqolada moliyaviy texnologiyalar yordamida mahalliy budjet mablag'larining nazoratini samarali boshqarish yo'llari bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.*

**KEYWORDS:**

*mahalliy byudjet,  
davlat byudjeti, byudjet  
nazorati, ochiq byudjet,  
byudjet daromadlari,  
byudjet xarajatlari,  
byudjet-soliq siyosati.*

Davlat byudjetining samarali ijrosini ta'minlashda byudjet intizomiga riosa qqlish, uning samarali tadbirlari tizimini yanada faollashtirishning nazariy va amaliy masalalari iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida uta ahamiyatli va ilmiy tadqiq uchun dolzarb muammolardan bulib qolhayotir.

Byudjet intizomini mustahkamlashga oid muammolar buyicha uzining muhim hissalarini qushgan xorijlik olimlar qatoriga E.Lorens., Dj. Lobbek., F. Defliz, Dj. Robertson va boshqa iqtisodchi-olim va mutaxassislarni kiritish mumkin. Shuningdek, Y.A. Danilevskiy, I. A. Belobjetskiy, N. T. Beluxa, E. A. Voznesenskiy, S.O. Shoxin, A.D. Sheremet va boshqalar bu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan yaqin xorij davlatlari iqtisodchi-olimlaridandir.

O'z navbatida, Vatanimiz iqtisodchi-olimlari ham ushu muammolar buyicha O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotining tahlili asosida ilmiy tadqiqning xazinasini ularining maqola va ilmiy chiqishlari orqali yanada boyitganlar. Ular qatoriga

Q.R.Sobirov, O.O.Olimjonov, T.S.Malikov, M.SH.Sharifxujayev, R.A.Karimov, A.V.Vahobov, O.K.Iminov, N.X.Xaydarov, M.B.Nurmurodov, J.A.Quchqorov, T.Jurayev, Q.N.Jamolov, Q.A.Yah'yoyev va shu kabi iqtisodchi-olimlarni kiritish mumkin.

Shunday bulishiga qaramasdan, byudjet intizomini mustahkamlash masalalari yuqoridagi holatlarning barchasida alohida tadqiqot obekti sifatida qaralmagan va masala yetarli darajada kompleks tarzda tadqiq etilmagan. Buning ustiga amalga oshirilgan tadqiqotlarning aksariyati rejali iqtisodiyot sharoitida amalga oshirilgan bulib, ularda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotining keyingi yillarda sodir bulgan uzgarishlar uz aksini topmagan.

Byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlashga bag'ishlangan dissertatsion tadqiqotni, dastlab, byudjet va byudjet intizomi, ularning mazmun-mohiyati, byudjet intizomini mustahkamlashning zarurligi va uning ahamiyatiga tegishli bulgan masalalarni tahlil qilishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki bu masalalar dissertatsion tadqiqotning nazariy asoslarini tashkil etib, ular tug'risida prinsipial pozitsiyaga ega bulmasdan turib byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash masalalarini kurib chiqish uzining ma'nosiga ega emas. Shuning uchun ham ilmiy ishimiz ana shu masalalarni birma-bir kurib chiqishga harakat qilamiz.

Iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish keng, ma'lum vositalar - moliya, kredit, soliq, valyuta siyosati yordamida amalga oshiriladi. O'tish davrida davlat xalq xujaligining yashash salohiyatini, ayniqsa, ustivor tarmoqlarni qullab-quvvatlashi shart, bunda u ularga narxlarni tartibga solish, imtiyozli soliq solishni qullash va hokazolar yuli bilan real yordam kursatadi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning davlat tomonidan tartiblanishi uning bir maromda rivojlanib borishiga qaratilgan chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi va ularning muttasil, izchil amalga oshirilishidan iboratdir [1]. Buning uchun davlat, odatda, uz zimmasiga quyidagi funksiyalar bajarilishini oladi:

bozor tizimini saqlash, ya'ni davlat raqobatni rag'batlantiradi, bozordagi sharoitlar va iqtisodiyotning holati tug'risida axborot bilan ta'minlab turadi, xujalik nizolariga hakamlik qiladi.

ijtimoiy ne'matlarni ta'minlash, ya'ni a'oliga zarur tovar va xizmatlarni ishlab chiqarqilishini ta'minlaydi.

atrof muhitni muhofaza qilish, ya'ni zararli qushimcha oqibatlarning ta'sirini cheklash hukumat zimmasiga tushadi.

daromadlarni qayta taqsimlash, ya’ni daromadlarni taqsimlash, aholi daromadlari darajalarini tenglashtirish, jamiyatning kam ta’milangan qatlamlarini qullab-quvvatlash bilan bog‘liq. Iqtisodiyotga davlat aralashuvining eng ashaddiy muholiflari ham kishilar urtasidagi munosabatlarni tartibga solish, aholining kam ta’milangan qatlamlariga yordam berish jamiyatning kambag‘al va boylari urtasidagi farqni yumshatish, minimal yashash miqdorini ta’milash uchun qayta taqsimlash siyosatining zarurligini e’tirof etadilar.

iqtisodiyotni barqarorlantirish, ya’ni iqtisodiy sikllarni yumshatish, ishsizlik va pul qadrsizlanishiga qarshi kurash, iqtisodiy usishni rag‘batlantirish qam davlatning zimmasidadir.

Davlat uz vazifalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlar qilishi zarur. Bu xarajatlar, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun turli tarmoqlarga investitsiya yunaltirish, aholining turmush darajasini kutarishga muljallangan ijtimoiy vazifalarni bajarish, davlatni boshqarish, mudofaani ta’milash kabi aniq maqsadlarga qaratilgan, rejalashtirilgan xarajatlardan iborat buladi. Bu umum davlat xarajatlari esa, uz navbatida, Davlat byudjeti orqali moliyalashtiriladi.

Haqiqatdan ham, davlatning uz vazifalarini bajarishiga, uz iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishiga imkon beradigan qurol yoki dastaklarning eng asosiysi davlat byudjetidir.

Byudjet “g‘azna” degan ma’noni bildirib, bu davlat va mahalliy uz-uzini boshqarish organlari vazifalari va funksiyalarini moliyaviy ta’milash uchun muljallangan pul mablag‘lari jamg‘armalarini tuplash va sarflash shaklidir [2]. Byudjet suzi g‘azna ma’nosini bildirar ekan, uning mohiyati ham davlatning qulida markazlashtirilgan pul jamg‘armalarining tashkil etilishi va davlatning siyosatini amalga oshirish bilan bog‘li xarajatlar yuzasidan pul munosabatlarini bildiradi. Davlat byudjeti moliya tizimi hamda davlat moliya bug‘inining asosiy qismidir.

Davlat byudjeti - davlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtarilgan jamg‘armasi bulib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yunalishlari va miqdori nazarda tutiladi [3].

Davlat byudjeti, uning daromad va xarajatlari jamiyatning iqtisodiy kategoriyalari bilan chambarchas bog‘liq. Davlat byudjeti orqali jamiyatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot qayta taqsimlanadi. Yalpi ichki mahsulotning qayta taqsimlanishi jamiyatdagi umumiyojlar: maorif, sog‘liqni saqlash, mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, aholi tarkibida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni moddiy jihatdan qullab-quvvatlash, tinchlik, chegaralar

daxlsizligini saqlash va favqulodda holatlar uchun saqlanadigan davlat zahiralarining mavjud bulishi zarurati tufayli kelib chiqadi.

Davlat byudjetining iqtisodiy tushunchasi, umumjamiyat miqyosida markazlashgan va davlat ishtirokida tuplangan va sarflanadigan moliyaviy resurslarni anglatadi.

Davlat byudjeti asosan, davlat maqsadli jamg‘armalari, respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy byudjetlarga bulinadi.

Davlat matssadli jamg‘armalari - Davlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg‘armalar bulib, ularning har biri uchun mablag‘lar manbalari, har bir manbadan mablag‘ tushish normalari va shartlari, shuningdek shu mablag‘lardan foydalanishi mumkin bulgan maqsadlar qonun hhujjalari bilan belgilanadi.

Respublika byudjeti - Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan ismi bulib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shunindek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yunalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mahalliy byudjet - Davlat byudjetining tegishli viloyatlar, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bulib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shunindek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yunalishlari va miqdori belgilanadi.

Umuman, byudjet inglizcha suz bulib, davlat, korxona, muassasa va ayrim shaxslarning ma’lum muddatga oldindan belgilab uyiladigan kirim-chiqim, ya’ni daromad va xarajatlari majmuuni ifodalaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda «byudjet» kategoriyasiga turli iqtisodchi olimlar tomonidan uning iqtisodiy mohiyatini ochib berishga qaratilgan uziga xos ta’riflar keltirilganini kurish mumkin. Masalan, O.G. Bejayev mazkur atamaga quyidagicha ta’rif beradi: «Byudjet huquqiy kategoriya sifatida – bu davlat va mahalliy hokimiyyat organlari funksiyalarini ta’minlash uchun tayinlangan pul mablag‘larini shakllantirish va sarf qilishning qonun bilan urnatilgan shakli, iqtisodiy kategoriya sifatida esa – moliyaviy rejadir».

Ushbu ta’rifda «byudjet» atamasiga munosib ta’rif berilgan bulsada, lekin uni moliyaviy reja sifatida talqin qilishda mazkur rejaning muayyan muddatga asoslanishini qat’iy kursatib utish zarur edi, deb hisoblaymiz. Chunki, ta’rifda kategoriya sifatida qonuniy tartib asosida kuchga kiritish bilan uz mohiyatini ochishga hamda, haqiqatan ham, byudjetning (davlat byudjetining) har yili qonun asosida qabul qilinishini e’tiborga olsak, yuqoridagi bildirilgan e’tirozimizning urinli ekanligi uz tasdig‘ini topadi.

Shuningdek V.V.Bocharov va V.YE.Leontevlarning «Korporativniye finansi» nomli uquv qullanmalarida mazkur atamaga berilgan ta’rifda boshqa jihatlarni kuzatish mumkin: «Byudjet – korporatsiyaning joriy, investitsion va moliyaviy faoliyati buyicha xarajatlar va mablag‘lar turkumini aks ettiruvchi, odatda, bir yilgacha tuziladigan tezkor moliyaviy reja».

Mazkur ta’rif, asosan, mikrodarajada, ya’ni xujalik subekti faoliyati doirasiga xosroq bulib, unda har bir faoliyat turlariga alohida urg‘u berilgan, shuningdek, eng avvalo, xarajatlar, sungra, pul tushumlari yuz berish holatiga tayanilgan, hamda bir yillik muddatdan oshmaydigan biznes-rejani ifoda etadi.

Berilgan ushbu ta’rif korxona miqyosida berilgan ta’rif, deb e’tirof etilishiga asos bula oladi va shu jihatdan uni tug‘ri, deya qabul qilish mumkin. Biroq davlat yoki mahalliy hokimiyat byudjetlari uchun munosib ta’rif bula olmaydi.

Mahalliy yoki xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan «byudjet» atamasiga berilgan ta’riflar talqinini kuplab keltirish mumkin. Biroq hozirgi kunda ular tomonidan olib borilgan ilmiy-nazariy va boshqa tadqiqotlarga asoslab berilgan fikrlarga asoslanib, byudjetning qaysi darajada ekanligidan qat’iy nazar, uning mohiyatini ochib berish uchun unga uch jihatdan yondoshish mumkinligini umumiy tarzda e’tirof etish mumkin va uni:

iqtisodiy kategoriya sifatida;

moddiy ma’noda;

huquqiy kategoriya sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir, deb hisoblaymiz.

Iqtisodiy kategoriya sifatida byudjet turli byudjet fondlarini shakllantirish, taqsimlash, foydalanish paytida yuzaga keluvchi va ruyobga chiquvchi iqtisodiy munosabatlardir. Moddiy ma’noda esa byudjet tegishli darajadagi davlat va mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta’minlovchi, ular oldiga quyilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni bajarish imkonini beruvchi markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondidan iboratdir. Davlat tomonidan rejalshtirilgan tadbirlarni byudjet isobidan moliyaviy ta’minalash deganda byudjetning aynan ana shu moddiy ma’nosini kuzda tutiladi, hhududiy kategoriya sifatida byudjet tegishli hhudud doirasida markazlashtirilgan pul mablag‘larini shakllantirish, taqsimlash, foydalanishga qaratilgan va tegishli davlat yoki mahalliy hokimiyat idorasi tomonidan tasdiqlangan asosiy moliyaviy reja, yuridik me’yorlardan iboratdir.

Belgilangan tartibda kuribchi qilgan va tasdiqlangan byudjet asosiy davlat yoki mahalliy moliyaviy rejaga, davlat hujjatiga aylanadi.

Byudjet asosiy moliyaviy reja sifatida quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

byudjet universal moliyaviy reja sifatida tegishli hududning iqtisodiy va ijtimoiy taraqiyotining barcha sohalari va yunalishlarini tula qamrab oladi;

byudjet boshqa turdag'i moliyaviy rejalariga nisbatan muvofiqlashtiruvchi vazifani bajaradi.

Xususan, korxonalarning moliyaviy rejalarida byudjetga tulanishi lozim buladigan majburiy tulovlar va byudjet hisobidan olinishi mumkin bulgan mablag'lar kursatiladi, davlat byudjeti hisobida turuvchi korxonalar esa uzlari byudjet hisobidan oladigan daromadlarini byudjet xarajatlari hisobidan oladilar.

Bizning fikrimizcha, yuqorida bayon qilinganlarga asoslangan xolda byudjetga quyidagicha ta'srif berish mumkin: turli darajadagi markazlantirilgan pul mablag'lari fondini vujudga keltirish, taqsimlash va foydalanishga oid asosiy moliyaviy reja bulgan, tegishli davlat yoki mahalliy hukumat organi tomonidan ishlab chiqiladigan, muhokama etiladigan, tasdiqlanadigan va ijro etiladigan yuridik hujjatga byudjet deyiladi.

Davlat byudjeti davlat moliyasi tizimida markaziy urinni egallaydi. Iqtisodiyot rivojlanishini turli bosqichlarida byudjet davlat siyosatini amalga oshirish quroli, muljallangan dasturlar va tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larining asosiy manbai hisoblanadi. Davlat byudjeti, davlat hokimiyatining kundalik masalalarini ham, rivojlanish istiqbollari vazifalarini hal etishda katta ahamiyatga egadir.

Byudjet uch tarkibiy ismdan - xarajat, daromad va ular balansidan iborat. Byudjetda daromadlarning xarajatlarga muvofiqligi qoidasi amal qilishi lozim. Byudjetni shakllantirish, avvalo, uning xarajat ismini tuzish yuli bilan yuz beradi, chunki davlat uzida mavjud moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqibgina xarajatlar qilishi mumkin emas. Davlat, avvalo, jamiyatni samarali rivojlantirish maqsadida uning oldida turgan vazifalarni bajarish uchun zarur mablag'lar hajmini belgilashi va shundan keyingina uz qulida bulgan byudjet daromad ismini tuldirishning asosiy vositasi - soliqlar va boshqa manbalar yordamida ana shu moliyaviy resurslarni jalb etishi kerak.

Davlat byudjeti pul resurslarining markazlashtirilgan jamg'armasi (fondi) bulib, mamlakat hukumati davlat apparati, qurolli kuchlarni tutib turish, shuningdek iqtisodiy funksiyalarni bajarish uchun uni tasarruf etadi. Hozirgi shart-sharoitda byudjet davlatning iqtisodiyotni tartibga solish, xujalik faoliyatiga ta'sir kursatish, shuningdek krizisga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishning qudratli vositasi hamdir. Hozirgi davlat byudjeti uning butun xilma-xil funksiyalarini aks ettiradigan murakkab, kup kurinishli hujjat hisoblanadi. Avvalo, byudjetda davlat xarajatlari va daromadlari tartibi uz aksini topadi. Xarajatlar byudjet mablag'larining sarflanish yunalishlari va maqsadlarini kursatadi.

Xarajat moddalarining ahamiyati juda muhim, chunki ularning qanchalik maqsadga muvofiqligi mazkur davlat soliq tulovchilari zimmasiga yuklatiladigan soliq yukiga bog'li

buladi. Bundan shu narsa ravshanki, mazkur ani davrda amal qiladigan soliqlar tizimi (soliqli dori, ularni stavkalari, soliq solinadigan baza) davlat byudjetida xarajatlarning qanday moddalari kuzda tutilganiga va ularni qoplash uchun qancha miqdorda mablag‘lar zarurligiga tula ravishda bog‘liqdir.

Iqtisodiyotni ishlab chiqarish sektorlari faoliyati uchun eng qulay shart-sharoitlarini yaratish bilan bog‘liq xarajatlar davlat xarajatlarining eng muhim moddalari qatoriga kiradi. Ijtimoiy infratuzilma obektlarini barpo etishga doir, birinchi navbatda ta’lim va sog‘liqni saqlash xarajatlari ham borgan sari kuproq urin egallamoqda.

Mahalliy byudjetlar davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning xarajatlari hisobiga birinchi navbatda kommunal mulk obektlari, yullar, maktablar qurilishi, aloqa vositalarini rivojlantirish, shuningdek, uy-joy qurilishi mablag‘ bilan ta’milanadi. Mahalliy hokimiyat organlari byudjetidan mahalliy ma’muriy va boshqa byudjet muassasalarini saqlab turish uchun ham foydalaniladi. Mahalliy byudjetlar xarajatlarida ijtimoiy madaniy ehtiyojlar, sog‘liqni saqlash obektlariga doir, iqtisodiy muvozanatni qullab turish xarajatlari ham muhim urin tutadi.

Byudjet tug‘risida uzimizning ma’lum bir pozitsiyamizga ega bulganimizdan sung endi byudjet intizomi xususida ma’lum bir tasavvurlarni shakllantirishimiz zarur. Shu munosabat bilan, dastlab, “byudjet intizomi” tushunchasining (iborasining) mazmun-mohiyatini belgilashda nimaning birlamchi rol uynashi mumkin ekanligini aniqlab olishimiz kerak. Gap bu yerda “byudjet intizomi” tushunchasining (iborasining) mazmun-mohiyatini belgilashda “byudjet” suzi birlamchi ahamiyatga egami yoki “intizom” suzi birlamchi ahamiyatga egami ekanligi tug‘risida ketayapti.

Garchi “byudjet intizomi” tushunchasining mazmun-mohiyatini belgilashda undagi “byudjet” va “intizom” tushunchalarini bulaklarga bulish maqsadga muvofiq bulmasa-da, belgilangan tartibda tegishli manbalarga murojaat qilish natijasida “byudjet intizomi” tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlashda hal qiluvchi rolni “intizom” tushunchasi uynashi lozim ekanligini aniqlashimiz mumkin. Shu ma’noda, “byudjet intizomi” tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlashda “byudjet” tushunchasi “intizom” tushunchasiga nisbatan ikkilamchi rolni uynaydi.

Shu urinda “byudjet intizomi” tushunchasining mazmun-mohiyati alohida-alohida tarzda “byudjet” va “intizom” tushunchalarining mexanik yig‘indisidan iborat emasligini ham qayd etib utishimiz kerak. Boshqacha suzlar bilan aytganda, “byudjet” va “intizom” suzlarining avtomatik tarzda qushib ishlatilishi va ularning ma’no-mazmuni “byudjet intizomi” tushunchasining ma’no-mazmunini ifodalamaydi.

“Byudjet intizomi” tushunchasining ma’no-mazmuni yoki mohiyatini ifodalashda “intizom” tushunchasi birlamchi ahamiyat kasb etar ekan, shunga muvofiq ravishda “intizom” tushunchasining mohiyatiga qisqacha tarzda tuxtalib utish maqsadga muvofiqdir. Shu munosabat bilan qayd etish joizki, “intizom” tushunchasi, sodda qilib aytadigan bulsak, ma’lum bir shakl va usulda urnatilgan tartib-qoidalarga qay darajada rioya etqilishini anglatadi (kursatadi).

O’z navbatida, “intizom” tushunchasi keng ma’nodagi tushuncha bulib, u ifodalashi mumkin bulgan narsalarning hammasi ham “byudjet intizomi”ning tarkibiga kiravermaydi. Uning tarkibiga nimalarning kirishi mumkinligi va aksincha, nimalarning kirishi mumkin emasligi “intizom” tushunchasining oldiga “byudjet” suzining qushilganligi bilan belgilanadi. Shu ma’noda, “byudjet intizomi” tushunchasi “intizom” tushunchasining tarkibiy ismi bulib, u ifodalashi mumkin bulgan voqeа yoki hodisalarning ma’lum bir qismini uzida mujassam qiladi, xolos.

“Byudjet intizomi” tushunchasining mazmun-mohiyati tug‘risida fikrlar shakllantirilayotgan ekan byudjet intizomining moliyaviy intizomning tarkibiy qismi ekanligini ham qayd etib utishimiz kerak.

Haqiqatdan ham, byudjet va byudjet munosabatlari moliya va moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi bulganligi uchun, shunga mos ravishda, byudjet intizomi moliyaviy intizomning tarkibiy qismidir, deb xulosa chiqarish uzining mantiqiy asosiga egadir. Shu ma’noda, byudjet intizomining harakat etish doirasasi moliyaviy intizomning harakat etish doirasiga nisbatan qancha torroqdir. Boshqacha suzlar bilan ifodalanadigan bulsa, “molivaviy intizom” deyilgan paytda hamma va ham “byudjet intizomi” nazarda tutilgan bulishi mumkin. Lekin “byudjet intizomi” deyilgan paytda hamma va ham moliyaviy intizom nazarga tutilavermaydi.

Moliyaviy intizomning tarkibiy ismi sifatida byudjet intizomi byudjet tizimi va byudjet jarayonlari orqali namoyon buladi. Shuningdek, byudjet intizomining namoyon bulishini byudjet nazoratisiz tasavvur etishning sira iloji yuq. Bir va tning uzida, byudjet, byudjet tizimi va byudjet jarayonlarini tartibga solib turuvchi qonunlar, byudjet tizimining asosiy tamoyillari, byudjet tizimiga oid me’yoriy hujjatlar, yuriqnomalar va tartiblarning talablarisiz byudjet intizomining ma’no-mazmunini ifodalab bulmaydi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan mulohazalarga asoslangan holda, bizning fikrimizcha, byudjet intizomining ma’no-mazmuni yoki mohiyatini ifodalaydigan quyidagicha ta’rif berish mumkin: Byudjet tizimi va byudjet jarayonlarida vujudga keladigan, barcha bosqichlarda qonun, byudjet tizimining asosiy tamoyillari, byudjet tizimi

tug‘risidagi me’yoriy hujjatlar, yuriqnomalar va tartiblar talablariga amal qilinining byudjet nazorati orqali ifodalaniniga byudjet intizomi deyiladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, 2000 yilning 14 dekabrida qabul qilingan «Byudjet tizimi tug‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunida unda qullanilgan asosiy iqtisodiy tushunchalarlarning mazmuni – ta’rifi keltirilgan. Biroq, bu yerda byudjet tizimi nuqtai-nazaridan “byudjet intizomi” tushunchasiga ta’rif berilmagan.

Mazkur qonun Respublikamiz hududidagi byudjet tizimini tartibga solib turish uchun xizmat qilsa-da, lekin qonunning faqat 38-moddasi Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilishga bag‘ishlangan bulib, byudjet intizomiga e’tibor qaratilmagan va u tug‘risida qonunning hech bir qismida ma’lumotlar uchramaydi. Vaholanki, byudjet intizomi tartibini, me’yorini mas’uliyati va javobgarligini qonunan belgilab quyish zarur va u ahamiyatli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham byudjet tizimini, byudjet va nobyudjet munosabatlarning byudjet ijrosini, byudjet nazoratini, byudjetlararo munosabatlarni, byudjet daromadlarini shakllantirishni, qolaversa, byudjet intizomini huquqiy tartibga solib turish imkonini beruvchi umumiyligi va yagona qonunni – byudjet kodeksini - ishlab chiqish va hayotga tadbiq qilish zarurdir. Chunki dunyoning rivojlangan kupchilik mamlakatlarida, shuningdek, Rossiya Federatsiyasida ham Byudjet kodeksi qabul qilingan va hayotga tadbiq etib kelinmoqda.

Shu urinda byudjet intizomining oldiga quyilgan maqsadlarni aniqlash, bizning nazarimizda, alohida ahamiyat kasb etadi. Tegishli tahlil ishlarini amalga oshirish va ularning natijalarini umumlashtirgan holda byudjet intizomining oldiga quyidagi maqsadlarga erishishning quyilganligini aniqlashimiz mumkin:

Byudjet mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanishda ularning maqsadliliginini ta’minlash;

Byudjet mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanishda ularning samaradorligiga erishish;

Byudjet mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanishda ularning tartibliliginini ta’minlash;

Byudjet mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanishda ularning qonuniyligiga erishish.

Byudjet intizomining oldiga quyilgan ana shu maqsadlarga erishish amaliyatda qanday sodir bulayotganligini aniqlash (garchi bizning hozirgi sharoitimizda bu narsani aniqlash uncha kup bulgan aqlni talab etmasa-da) orqali uni mustahkamlashning zarurligi yoki zarur emasligi tug‘risida tegishli xulosalar chiqarish mumkin. Muammoga ana shu tarzda

yondoshib, tegishli tahlil ishlarini amalga oshirish natijasida hozirgi bizning sharoitimizda byudjet intizomining oldiga konkret yoki aniq maqsadlar quyilgan (belgilangan) bulishiga qaramasdan byudjet intizomiga rioya etish darajasining, ma'lum darajada, past ekanligini aniqlashimiz mumkin. Tegishli subektlarning (byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar bu yerda markaziy urinni egallaydi) faoliyatida byudjet intizomiga rioya etishning yuqoridagi maksadlariga tuli erishilayotmaganligi ana shunday xulosa chiqarqilishiga asos buladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati**

1. Ulmasov A. Iqtisodiyot bilimi asoslari. -Toshkent, 2002. 133 b.
2. A.Voxobov, Z.Srojiddinova O'zbekiston Respublikasining Davlat Byudjeti. –T.: 2002.
3. Davlat moliyasi tizimi. J.2.- T.:O'zbekiston, 2002.